

O‘ZBEKISTONDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING BOSQICHLARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

Madraximova Zulfiya Nurmatovna

Guliston davlat universiteti

“Ekologiya va geografiya” kafedrası katta o‘qituvchisi.

Xidiraliyev Komil Esanovich

Guliston davlat universiteti

“Ekologiya va geografiya” kafedrası geografiya fanlari nomzodi., dotsent.

Omonov Xo‘jamurod Sherali o‘g‘li

Guliston davlat universiteti

“Ekologiya va geografiya” kafedrası

*“Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ta’lim yo’nalishi 4-bosqich
talabasi.*

Nabijonova Durdonaxon Qobuljon qizi

Guliston davlat universiteti

“Ekologiya va geografiya” kafedrası

*“Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ta’lim yo’nalishi 4-bosqich
talabalasi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekoturizm tushunchasining vujudga kelish asoslari va uning mazmuni ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Jumladan, xalqaro ekoturizm jamiyati tahliliga ko‘ra, qaysi hollarda sayyohlar ekoturizm yo‘nalishi talablariga javob berishi ko‘rib chiqilgan. O‘z navbatida, O‘zbekistonda

ekoturizmning rivojlanish asoslari, uning bosqichlari tadqiqot natijari asosida bayon qilingan. Maqolada mualliflarning mazkur mavzu doirasidagi xulosa va takliflari berilgan.

Kalit soʻzlar: Ekoturizm, atrof-muhit, sayyoh, Xalqaro ekoturizm jamiyati, tabiiy muhit, madaniy muhit, iqtisodiy barqarorlik, ekologik barqarorlik, ijtimoiy barqarorlik.

STAGES OF ECOTOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND THE MECHANISM OF THEIR IMPLEMENTATION

Madrakhimova Zulfiya Nurmatovna

*Senior lecturer of the Department of
Ecology and Geography, Gulistan State University.*

Khidiraliyev Komil Esanovich

*Gulistan State University
Department of Ecology and Geography
PhD in Geography, Associate Professor.*

Omonov Khojamurad

*Gulistan State University
Department of Ecology and Geography
4th year student of the "Ecology and Environmental Protection"
educational program.*

Nabijonova Durdonakhon

*Gulistan State University
Department of Ecology and Geography*

Abstract. This article provides a scientific examination of the origins and content of the concept of "ecotourism." Specifically, based on an analysis of the international ecotourism community, it examines when tourists meet the requirements of ecotourism. Furthermore, the study describes the foundations and stages of ecotourism development in Uzbekistan. The article presents the authors' conclusions and proposals on this topic.

Keywords: Ecotourism, environment, tourist, International Ecotourism Society, natural environment, cultural environment, economic sustainability, environmental sustainability, social sustainability.

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida turizm industriyasiga e'tibor va e'tirof kuchaymoqda. Uning o'ziga xos yo'nalishlari zamon bilan hamnafas holda, vaqt va makon doirasida shakllanmoqda va rivojlanib bormoqda. Bu yo'nalishlar ichida ekoturizm jamiyat e'tiborini o'ziga tortmoqda. Chunki, tabiatga ozor bermagan holda, uning saxovatidan foydalanishda ekoturizmning roli beqiyosdir. Agar biz ekoturizm tushunchasi tarixiga e'tibor bersak, quyidagilarni guvoxi bo'lamiz.

Ekoturizm (*ekoturizm, yashil turizm*)-antropogen ta'sirga nisbatan ta'sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir shakli. G'arbdagi "ekoturizm" atamasi XX asrning 80-yillari birinchi yarmida meksikalik ekolog Ektor Ceballos-Laskurain (ispancha Hector Ceballos-Laskurain) tomonidan konferensiyalardan birida rasmiy ravishda ishlatilgan. U dam olish va ekologiya o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini aks ettirdi va katta Shuhrat qozondi. Ushbu ta'rifning variantlaridan biri ekoturizm tabiiy imtiyozlardan oqilona foydalanishga asoslangan rekreatsiyaning faol shaklidir [1, 2].

Tadqiqot uslublari. So‘nggi yillarda turizm sohasi faol ravishda o‘zgarmoqda. Aytaylik, bundan bir necha yil oldin pandemiya bilan bog‘liq karantin cheklovlari, uning ortidan mehmonxonalar va aviachiptalar narxining o‘shishi sayohatni tobora qimmat ko‘ngilxushlikka aylantirdi. Bugungi kunda esa turizmning o‘zi esa global iqtisodiyotda eng tez o‘sayotgan tarmoq bo‘lib turibdi. Ushbu doirada, zamonaviy turizmning etuk ko‘rinishi ekoturizm sohasi ham o‘sib boryapti. Ekoturizm deganda jahon amaliyotida atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lib, tabiat qo‘ynida dam olish nazarda tutiladi. BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) ma‘lumotlariga ko‘ra, 2023–2028-yillarda ekoturizm bozorining o‘rtacha yillik yalpi o‘shish sur‘ati 16,1 foizni tashkil etishi kutilmoqda [3].

O‘zbekistonda ekoturizm yangi rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-iyul oylarida O‘zbekistonga 4,2 mln xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo‘lib, ularning oqimi 2023-yilga nisbatan 15,3 foizga oshgan. YUqorida aytib o‘tilganidek, ekoturizm qat‘iy tabiat qo‘yniga sayohat qilishni nazarda tutadi. Bunday tajribadan asosiy maqsad-tabiatdan bahra olish. Xalqaro ekoturizm jamiyati-The International Ecotourism Society (TIES) butun dunyo bo‘ylab ekoturizmni targ‘ib qilish bilan shug‘ullanuvchi tashkilot bo‘lib, uning ta‘rifiga ko‘ra, ekoturizm-bu tabiat qo‘yniga mas‘uliyatli sayohat bo‘lib, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, mahalliy aholining farovonligini qo‘llab-quvvatlash va yangi tajribalarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

TIES tamoyillariga ko‘ra, quyidagi hollarda sayohatlar ekoturizm hisoblanadi:

- belgilangan joyda atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida insonning hududga ta‘siri kuzatib boriladi va tashrif buyuruvchilar oqimi boshqariladi;
- yaratilgan infratuzilma tabiatga minimal ta‘sir ko‘rsatadi;
- joylarning egalari “yashil” standartlar va texnologiyalarni joriy etadi;

-tadbirlar mahalliy aholining an'anaviy madaniyatini saqlash va qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi [4,5].

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Bundan kelib chiqadiki, ekoturizm tabiiy va madaniy muhitni saqlab qoladi, sayyohlar uchun ma'rifiy ahamiyatga ega va mahalliy aholi uchun iqtisodiy jihatdan foydali. Biroq ularning barchasi tashkilotlarning turli barqaror rivojlanish dasturlari va missiyalarida mustahkamlangan tamoyillardir. Ushbu tamoyillar amalda qanday tatbiq etilishini ko'rib chiqamiz. Ekoturizmni barqaror rivojlantirish, muayyan qiyinchiliklar bilan bo'lsa-da, real voqelikdir. Bu sohadagi muvaffaqiyat iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy barqarorlik o'rtasidagi to'g'ri muvozanatga bog'liq.

Iqtisodiy barqarorlik mahalliy jamoalarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi. Ekoturizm ish o'rinlarini yaratish va mahalliy jamoalarning daromadlarini oshirish orqali iqtisodiyotni rag'batlantirishi mumkin, ayniqsa chekka va qishloq joylarda. Masalan, MDH davlatlarida BMTTD ko'magida qishloq xo'jaligi dehqon va fermerlari, ijtimoiy soha xodimlari, ta'lim muassasalari, muzeylar, tabiiy qo'riqxonalar vakillari alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlarga ekologik ekskursiyalarni tayyorlash va tashkil etish xususiyatlari bo'yicha o'qitilmoqda.

Ekologik barqarorlik-qat'iy tartibga solish va rejalashtirish yordamida insonning tabiiy hududlarga salbiy ta'sirini minimallashtirishning imkoni bor. Jumladan, qisman ekoturizm hisobidan moliyalashtiriladigan ekologik toza texnologiyalarni joriy etish orqali. Masalan, ayrim alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarda oqova suvlarni nazorat qilish uchun datchiklar o'rnatiladi.

Ijtimoiy barqarorlik-ekoturizm nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholi, jumladan, bolalar orasida ham ekologik mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirish va tarbiyalashga yordam berishi mumkin. Misol uchun, BMT sayohatlarga nisbatan mas'uliyatli munosabatni shakllantirish maqsadida "Inson va biosfera" ta'lim dasturini ishlab chiqdi. Dastur butun dunyo bo'ylab 25 ta qo'riqxonada,

shu jumladan, Qozog‘istonning ikkita-Olmaota va G‘arbiy Oltoy biosfera qo‘riqxonalarida hamda Rossiyaning “Kologriv o‘rmoni” qo‘riqxonasida amal qilmoqda. Yana bir misol-Avstraliyada mahalliy aholini ekoturizm sohasida ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashadigan ikkita davlat agentligi [faoliyat yuritadi](#) [6].

O‘zbekistonda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” davlat dasturi doirasida ichki turizmni rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilyapti. 2026-yilga kelib mahalliy sayyohlar sonini 12 milliondan oshishi, xorijlik sayyohlar soni esa 9 millionga yetishi kutilmoqda. O‘zbekistonda turizmning asosiy turi madaniy-ma‘rifiy bo‘lib qolmoqda. Biroq mamlakatning boy diniy merosini hisobga olgan holda, ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha tashabbuslar ilgari surilgan. Shuningdek, hozircha aniq tafsilotlar mavjud bo‘lmas-da, faol turizmni (sport va ekoturizm) rivojlantirish rejalari haqida ham gapirsak bo‘ladi.

Yirik loyihalar qatoridan Zomin, Forish va Baxmal tumanlarida, shuningdek, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimida yangi turistik zonalar barpo etish joy olgan. 300 mln dollarlik loyihalar doirasida 25 mingta ish o‘rni tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish dasturining yana bir farqi shundaki, bu yerda Qozog‘iston yoki Rossiyadagi kabi turistik makrohududlar va klasterlarni yaratish tendensiyasi mavjud emas. Ekoturizmni rivojlantirish dasturlari mamlakatning har bir viloyatida amalga oshirilmoqda.

Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Orolbo‘yida Mo‘ynoq yangi aeroporti imkoniyatlaridan foydalangan holda ekologik va ziyorat turizmi loyihalari ishga tushirilmoqda. Xorazm viloyatini turizm sohasida ish o‘rinlari yaratishning asosiy “harakatlantiruvchi kuchi” ga aylantirish choralari ko‘rilmoqda. Buxoro viloyatida esa turizmni jadal rivojlantirish dasturi amalga oshirilmoqda.

Turizm sohasida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash muhim yo‘nalishga aylanmoqda. 2021-yilda ishga tushirilgan Tourism. Path to Innovation tanlovi startaplarni qo‘llab-quvvatlash va mamlakatning turizm salohiyatini ochib

berishga qaratilgan. Shu bilan birga, BAA investitsiya kompaniyasi ko‘magida Toshkentda yangi turizm akademiyasini ochish rejalashtirilgan.

O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishning o‘ziga xos mexanizmi mavjud. Ekoturizmni rivojlantirish ham tabiiy hududlar salohiyatini baholash, ham strategik rejalashtirishni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab etadi. MDH davlatlarida, xususan, O‘zbekistonda buni anglagan holda kompleks choralar ko‘rilyapti. Masalan, so‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekistonda muhofaza etiladigan tabiiy hudud (METH) lar maydoni mamlakat umumiy maydonining 5,2 foizidan 14 foizigacha kengaytirildi. Bugungi kunda mamlakat METH tizimiga 8 ta qo‘riqxonasi, 2 ta biosfera qo‘riqxonasi, 3 ta milliy bog‘ va boshqa tabiatni muhofaza qilish obyektlari kiradi.

Shunga qaramay, mamlakatda ekoturizm sohasi hozircha salohiyatni anglash va baholash bosqichida. Atlas kompaniyasi barqaror ekoturizmni rivojlantirish sohasidagi jahon amaliyotini tahlil qilib, to‘rtta asosiy bosqichni ajratib ko‘rsatdi. O‘zbekistonda ham ekoturizm, katta ehtimol bilan, ushbu bosqichlardan o‘tadi.

Tabiiy hududlarning salohiyatini baholash. Birinchi navbatda, bioxilma-xillik darajasini baholash zarur. Bu noyob flora va faunaga, kamyob turlarga yoki muhim ekotizimlarga ega bo‘lgan joylar soni bilan o‘lchanadi. Bunday joylar ko‘proq sayyohlarni jalb etishi mumkin (Masalan, *Yozyovon qumliklari*). Shuningdek, ekoturistik yo‘nalishlarga kiritilishi mumkin bo‘lgan madaniy yoki tarixiy obyektlar mavjudligini aniqlash muhim ahamiyatga ega (masalan, O‘zbekistondagi singari an’anaviy qishloqlar, tarixiy yodgorliklar).

Ustuvor turistik loyihalar xaritasini yaratish. Tabiiy hududlar to‘g‘risida barcha ma’lumotlarni to‘plash, ayni paytda ekologik, ijtimoiy va infratuzilmaviy jihatlarni hisobga olish lozim. Ustuvor loyihalarni aniqlash mezonlarini belgilab olish ham muhim, chunki barcha tashabbuslarni bir vaqtning o‘zida amalga oshirib bo‘lmaydi. Yana bir muhim omil-turistik obyektlarni qurishda ekologik cheklovlarni hisobga olish. Rossiyada alohida muhofaza etiladigan tabiiy

hududlarda qurilishni tartibga solishga qaratilgan qonun kuchga kirdi, chunki ekoturizmning rivojlanishi shunchalik tezlashdiki, bu muhim ekotizimlarga xavf sola boshladi.

Manfaatdor tomonlarni jalb etish. Tomonlarni jalb qilishga yorqin misol-YUNESKO ning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Arxangelsk viloyatidagi Kenozere milliy bog'i. 1996-yili, bog' endigina shakllana boshlagan vaqtdan beri, unga Norvegiyaning bir nechta tashkilotlari, jumladan Riksantikvaren madaniy merosni muhofaza qilish boshqarmasi yordam berib kelgan. Hamkorlik shartlaridan biri shuki, bog'ni tashkil etish va madaniy obyektlarni ta'mirlash bo'yicha barcha ishlarda mahalliy aholi ishtirok etishi shart. Darya Kovalenkoning fikricha, bu bosqichda boshqaruvning ikki darajasida o'zaro hamkorlik qilish vositalarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'rta darajadagi hamkorlik vositalarini, birinchi navbatda, investorlar bilan ishlash va ekoturizm salohiyatiga ega hududlarni aniqlash haqida o'ylab ko'rish muhim. Shuningdek, mahalliy darajadagi vositalar-joylarda kichik biznes uchun ekoturizmni rivojlantirish uchun, jamoalar bilan ishlash uchun, infratuzilma, so'qmoqlar, yo'l ko'rsatkichlarini tashkil etish uchun yo'riqnomalar ham zarur.

Doimiy monitoring va moslashtirish. Qayta aloqa shuning uchun ham muhimki, prognozlarga ko'ra, 2033-yilga kelib turizm sohasi global YAIM ning 11,6 foizini tashkil etadi, butun boshli tarmoq esa 2019-yilga nisbatan 50 foizga o'sadi. Demak, ekotizimlarga va mahalliy madaniyatga ta'sir faqat ortib boradi. 2030-yilga kelib turizm sanoatida karbonat angidrid gazi chiqindilari ham 2016-yilga nisbatan 25 foizga oshadi.

Yechimlar turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, Xorvatiyaning Dubrovnik shahrida sayyohlarni madaniyat va tabiatga ongli munosabatda bo'lishga undovchi reklama ishga tushirildi, shahar hokimiyati esa g'ildirakli chamadonlarni tosh yo'laklar bo'ylab olib yurishni taqiqladi. Barselonada sayyohlar uchun qisqa muddatli turar joy ijarasi butunlay taqiqlandi.

Hozircha bu yordam bermayapti. Dunyo bo'ylab sayohat statistikasini o'rganuvchi Murmuration startapi hisob-kitoblariga ko'ra, sayyoramizdagi sayyohlarning aksariyati barcha yo'nalishlarning atigi o'ndan bir qismidan foydalanmoqda. Biroq ijobiy jihatlar ham mavjud. Turar joy ijarasiga ixtisoslashgan xizmatlardan biri o'tkazgan so'rovnoma mijozlarning yarmidan ko'pi "ommalashmagan" yo'nalishlarda sayohat qilishga tayyor ekanini aniqladi. Bunday vaziyatda O'zbekiston kabi mamlakatlar dunyoning eng gavjum va "toliqqan" hududlaridagi yuklamani kamaytirish bilan bir vaqtda, o'z hududlarida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa o'rnida aytish lozimki, **ekoturizm**-ekologik ta'lim va ma'rifat dasturlarini o'z ichiga olgan va ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiatga yo'naltirilgan turizmdir. Ekologik turizm-mahalliy madaniyat va ekotizimning yaxlitligini buzmaydigan tabiiy muhitni yaxshiroq tushunish maqsadida tabiiy hududlarga maqsadli sayohat, tabiiy resurslarni himoya qilish esa mahalliy aholi uchun foydali bo'ladi.

Ekoturizm-atrof-muhitga ta'sirni, iste'molni va xarajatlarni minimallashtirishga qaratilgan axloqiy me'yorlarga muvofiq tashkil etilgan va atrof-muhitga ta'sirni kamaytirishga qaratilgan ekologik jihatdan barqaror tabiiy turizmning bir shakli bo'lib, u atrof-muhitga, iste'molga va xarajatlarga (nazorat qilish nuqtai nazaridan, o'lchovlarning afzalliklari), odatda, turizmning bunday shakli himoyalangan hududlarda rivojlanib boradi, bu hududlarni saqlab qolishga yordam beradi.

Ekoturizm-tabiatni muhofaza qilish va rivojlanishga hissa qo'shishi mumkin, u kamida sayyohlik faoliyati, biologik xilma-xillik va mahalliy aholi o'rtasida ijobiy sinergik munosabatlarni o'z ichiga oladi, bu esa tegishli tashkilot va ushbu faoliyatni boshqarish tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Ekoturizmning asosiy xususiyatlari:

-nisbatan buzilmagan tabiiy hududlarda sodir bo'ladi;

- tabiiy muhitni yo‘q qilishga, uning sifati yomonlashishiga olib kelmaydi;
- foydalaniladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va boshqarishga bevosita hissa qo‘shadi;
- yetarli va vakolatli boshqaruvga bo‘ysunadi.

Ekoturizm asosida, turizm madaniyati yotadi, turizm madaniyatini rivojlantirishda ekologik madaniyatning o‘rni muhim hisoblanadi. Chunki, turizmning Ekoturizm sohasi ekologiya bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, turizmning ushbu yo‘nalishlarini rivojlantirishda turizm ob‘ekti hamda tashrif buyuruvchi turistning ekologik madaniyati qanchalik darajada shakllanganligiga bog‘liq. Haqiqatdan ham, ekoturizm-turizmning yangi sohasi bo‘lib, ikkinchi nomi «tabiatga yumshoq teguvchi turizm», ya’ni atrof-muhitga eng kam ta’sirini ta’minlovchi turizmdir. Ushbu yo‘nalish doirasida ishlab chiqilgan ekoturizm dasturi odatda ekologik toza joylarga borishni nazarda tutadi va tabiat qo‘riqxonalariга uyushtiriladi. Turizmning bu turi tabiiy hududlarga mas’uliyat bilan sayohat qilishni hamda tabiatni muhofaza etishni ta’minlaydi va mahalliy xalqning turmush darajasini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. БМТ Жаҳон сайёҳлик ташкилоти Ижроия Кенгашининг 99 сессияси.—Тошкент, «Ўзбекистон», 2014. —Б. 14.
2. Ward N.K. Ecotourism: Reality or Rhetoric//www.ecotourism.org, March, 1997.
3. Экологический туризм: учебно-методическое пособие для студентов бакалавриата направления «Туризм». Сост. Е.Л. Пименова. - Ижевск: Издательство «Удмуртский университет», 2012. - 78 с.
4. Храбовченко В.В. Экологический туризм: Учебнометодическое пособие. - М.: Финансы и статистика, 2003. — 208 с
5. Е. В. Грачевой «Экологический туризм. Учебное пособие для вузов». 2025. 161-стр.

6. Нигматов А.Н. «Экотуризм ва унинг географик хусусиятлари» (Наманган вилояти мисолида). Монография.-Т.: «Наврӯз» нашриёти, 2019. – 148 б.